

NOQONUNY BOYLIK ORTTIRGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Qobilov Farhod Rustam o'g'li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Magistratura fakulteti tinglovchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19594319>

Annotatsiya. Ushbu maqolada noqonuniy boylik orttirganlik uchun jinoiy javobgarlikni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga joriy etish istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqot korrupsiyaga qarshi kurashning xalqaro standartlari, xususan BMT Korrupsiyaga qarshi Konventsiyasi (UNCAC) 20-moddasi talablari asosida olib borilgan. Maqolada O'zbekiston amaldagi qonunchiligining holati, xorijiy davlatlar tajribasi va mazkur institutni milliy huquqqa tatbiq etishning nazariy hamda amaliy muammolari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, noqonuniy boylik orttirganlik uchun javobgarlikni joriy etish O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashni sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin, biroq bu jarayon Konstitutsiyaviy kafolatlar, ayniqsa, aybsizlik prezumpsiyasi prinsipiga muvofiq ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi lozim.

Kalit so'zlar: noqonuniy boylik orttirganlik, korrupsiya, UNCAC, jinoiy javobgarlik, aybsizlik prezumpsiyasi, moliyaviy monitoring, davlat xizmatchisi, mulk deklaratsiyasi.

Abstract. This article analyzes the prospects for introducing criminal liability for illicit enrichment into the legislation of the Republic of Uzbekistan. The study was conducted on the basis of international standards for combating corruption, in particular, the requirements of Article 20 of the United Nations Convention against Corruption (UNCAC). The article considers the current state of the legislation of Uzbekistan, the experience of foreign countries, and the theoretical and practical problems of implementing this institution into national law. The results of the study show that the introduction of liability for illicit enrichment can significantly strengthen the fight against corruption in Uzbekistan, but this process should be carried out carefully, in accordance with constitutional guarantees, in particular, the principle of the presumption of innocence.

Keywords: illicit enrichment, corruption, UNCAC, criminal liability, presumption of innocence, financial monitoring, civil servant, property declaration.

Аннотация. В данной статье анализируются перспективы введения уголовной ответственности за незаконное обогащение в законодательство Республики Узбекистан.

Исследование проводилось на основе международных стандартов борьбы с коррупцией, в частности, требований статьи 20 Конвенции Организации Объединенных Наций против коррупции (КНKK). В статье рассматривается текущее состояние законодательства Узбекистана, опыт зарубежных стран, а также теоретические и практические проблемы внедрения этого института в национальное законодательство.

Результаты исследования показывают, что введение ответственности за незаконное обогащение может значительно усилить борьбу с коррупцией в Узбекистане, но этот процесс должен осуществляться осторожно, в соответствии с конституционными гарантиями, в частности, принципом презумпции невиновности.

Ключевые слова: незаконное обогащение, коррупция, КНKKK, уголовная ответственность, презумпция невиновности, финансовый мониторинг, государственный служащий, декларирование имущества.

KIRISH

Korrupsiya - zamonaviy davlatchilikka tahdid solib kelayotgan eng jiddiy ijtimoiy-huquqiy muammolardan biridir. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, korrupsiya tufayli yiliga jahon miqyosida taxminan 2,6 trillion dollar miqdorida zarar yetkazilmoqda, bu esa global YaIM ning taxminan 5 foizini tashkil etadi.¹ O'zbekiston Respublikasi ham bu muammoning jiddiyligini tan olib, korrupsiyaga qarshi kurashni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

O'zbekistonda 2017-yilda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun qabul qilingan va 2019-yilda O'zbekiston BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2003-yil 31-oktabrda №58/4 Rezolyutsiya bilan qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi"ni (UNCAC) ratifikatsiya qiladi va bu korrupsiya oldini olishga qaratilgan sohadagi islohotlarning huquqiy asosini mustahkamladi. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, mavjud huquqiy mexanizmlar korrupsion boyliklarni aniqlash va musodara qilish uchun yetarli emas. Aynan shu nuqtada noqonuniy boylik orttirganlik uchun javobgarlik instituti muhim ahamiyat kasb etadi.

UNCAC ning 20-moddasida noqonuniy boylik orttirish – bu mansabdor shaxsning qasddan sodir etiladigan va jinoiy huquqbuzarlik deb topiladigan aktivlarining qonuniy daromadidan ortib ketishi va mansabdor shaxsning ortib ketgan aktivlarining daromad manbayini isbotlay olmasligida ifodalanadi.² Mazkur modda bo'yicha davlat mansabdor shaxsi o'zining qonuniy daromadlariga nisbatan sezilarli darajada ko'p mulk orttirgan bo'lsa va bu mulkning qonuniy manbasini izohlashga qodir bo'lmasa, u jinoiy javobgarlikka tortilishi lozimligi ta'kidlanadi.

Ushbu yondashuv korrupsion faoliyatni isbotlashda an'anaviy yo'llar (pora olish, suiiste'mollik va boshqalar) samarasiz bo'lgan hollarda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Asosiy muammo haddan tashqari boylik va jinoiy faoliyat (korrupsiya, o'zlashtirish, o'g'irlik va h.k.) o'rtasida aniq bog'liqlikning mavjud emasligidan kelib chiqadi.

Bu holat davlat xizmatchilariga taqiqlangan xatti-harakatlardan tiyilish imkonini beruvchi aniq ko'rsatmalar berishga to'sqinlik qilishi mumkin, bu esa o'z navbatida "qonuniylik prinsipi"ning buzilishiga olib keladi. Ushbu prinsipga ko'ra, huquqbuzarliklar qonunda aniq belgilanishi shart, toki "shaxs tegishli qonun qoidalarining so'zlaridan kelib chiqib, qaysi harakatlari yoki harakatsizligi uchun javobgarlikka tortilishini oldindan bilsin" (Kokkinakis Gretsiyaga qarshi, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi, 1993-yil). Hozirgacha Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi kabi hech bir xalqaro sud bunday holatlar bo'yicha qaror chiqarmagan.

Biroq, bir qator mamlakatlarda ushbu jinoyat bo'yicha chiqarilgan hukmlar konstitutsiyaviy va inson huquqlari asosida shubha ostiga olingan.³

¹ World Bank. (2021). Combating Corruption. <https://www.worldbank.org/en/topic/governance/brief/anti-corruption>

² BMT Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi (UNCAC), 2003. United Nations Treaty Series. <https://www.unodc.org/unodc/en/corruption/uncac.html>

³ Perdriel-Vaissiere, M. (2011). The accumulation of unexplained wealth by public officials: Making the offence of illicit enrichment enforceable (U4 Brief No. 2). U4 Anti-Corruption Resource Centre. <https://www.cmi.no/publications/file/4365-the-accumulation-of-unexplained-wealth-by-public.pdf>

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi - noqonuniy boylik orttirganlik uchun javobgarlikni O'zbekiston qonunchiligiga joriy etishning nazariy-huquqiy asoslarini o'rganish, xorijiy davlatlar tajribasini qiyosiy tahlil qilish va milliy kontekstdagi muammolar hamda istiqbollarni belgilashdan iboratdir.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, induktiv va deduktiv mantiq metodlaridan foydalanilgan. Birlamchi manbalar sifatida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, UNCAC matni, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va xorijiy davlatlarning milliy qonunchilik hujjatlari o'rganilgan. Ikkilamchi manbalar sifatida esa huquqshunoslik sohasidagi ilmiy maqolalar, monografiyalar va tahliliy materiallar tahlil qilingan.

Garchi davlatlar korrupsiyaga oid turli harakatlarni taqiqlovchi ko'plab jinoiy qonunlarni qabul qilishlari mumkin bo'lsa-da, ushbu qonunlarning o'z maqsadiga erishish samaradorligi, tabiiyki, hukumatlarning tergov qilish va jinoiy javobgarlikka tortish borasidagi qobiliyati hamda xohish-irodasiga bog'liq. Ehtimol, korrupsiyaga qarshi kurashda hukumatlar duch keladigan eng katta to'siq — bu korrupsiyaning o'zini aniqlashdir. Korrupsion faoliyatni fosh etish uning yashirin tabiati tufayli "o'ta murakkab" hisoblanadi, chunki odatda ikki yoki undan ortiq shaxs o'zaro maxfiy kelishuvga kirishadi. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari uchun korrupsiyani aniqlash va tergov qilish ko'pincha imkonsizdek tuyuladi, sababi korrupsion harakatning bevosita ishtirokchilaridan hech biri ushbu jinoyat fosh etilishini istamaydi.⁴

Korrupsiyaga qarshi tizimli kurashishda mansabdor shaxslarning qonunga xilof tarzda boylik orttirishlarini aniqlash va ularni jinoiy javobgarlikka tortish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. BMT Bosh kotibi Antonio Guterresning 2023-yil 11-15-dekabr kunlari AQSHning Atlanta shahrida o'tkazilgan BMT Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining 20 yillik yubileyi yuzasidan xalqaro konferensiyasidagi nutqida "Korrupsiya nafaqat resurslarni, balki insonlarning adolatga bo'lgan umidini ham tortib olmoqda, barcha a'zo davlatlarni korrupsiyani aniqlash, tergov qilish va korrupsiyaga qarshi samarali kurashishda xalqaro hamkorlikka chaqiramiz" – deb ta'kidlagan edi. Bu esa o'z navbatida, korrupsiyani oldini olish, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida korrupsion xavf-xatarlarni aniqlash va ularga barham berishning xalqaro hamjamiyat oldidagi dolzarb vazifa ekanligidan dalolat beradi.⁵

Milliy huquqshunos olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining ustuvor yo'nalishlari, davlat xizmatchilarining daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini joriy etish hamda noqonuniy boylik orttirishga qarshi javobgarlikni kuchaytirish zarurati asoslab berilgan.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda noqonuniy boylik orttirganlik uchun jinoiy javobgarlikni joriy etishning afzalliklari bilan bir qatorda, uning ayrim murakkab jihatlari ham ko'rsatib o'tilgan.

⁴ Boles, J. R. (2014). Criminalizing the Problem of Unexplained Wealth: Illicit Enrichment Offenses and Human Rights Violations. NYU Journal of Legislation and Public Policy, 17, 835–878. <file:///C:/Users/user/Downloads/ssrn-2588488.pdf>

⁵ Saidova, S. O. (2026). Korrupsiya: noqonuniy boylik orttirish uchun javobgarlikni belgilash masalalari. Ilm-fan xabarnomasi (Science Bulletin), 13(1). <https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/view/27715/30502>

Jumladan, bu institutni qo‘llashda shaxsning mulkiy huquqlari, aybsizlik prezumpsiyasi va isbotlash standartlariga rioya etish zarurati alohida qayd etiladi. Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, noqonuniy boylik orttirganlik uchun jinoiy javobgarlikni joriy etish korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim vosita bo‘lishi mumkin, biroq uni milliy huquqiy tizimga joriy etishda puxta ilmiy asoslangan yondashuv talab etiladi.

Natijalar va muhokama

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, noqonuniy boylik orttirganlik uchun jinoiy javobgarlikni joriy etish korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin. Tahlillar asosida aniqlanishicha, mansabdor shaxslarning daromadlari va mol-mulki o‘rtasidagi nomutanosiblikni jinoyat sifatida baholash ularning noqonuniy faoliyatini aniqlashda samarali vosita hisoblanadi. Bir qancha davlatlarda noqonuniy orttirilgan boylik uchun javobgarlik masalasi ularning qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan. Xalqaro tajriba orqali noqonuniy topilgan boylik uchun javobgarlik masalasini tahlil qilamiz.

Hindiston tajribasi. Hindiston 1988-yilda “Korrupsiyaga qarshi to‘g‘risida”gi Qonunning 13¹(e)-moddasiga binoan noqonuniy boylik orttirganlikni jinoiy javobgarlik bilan belgilagan. Bu modda bo‘yicha davlat xizmatchisi qonuniy daromadidan ortiq mulkka ega bo‘lsa, uni izohlashi shart, aks holda jinoiy javobgarlikka tortiladi. Hindiston Oliy sudi State of Maharashtra v. Wasudeo Ramchandra Kaidalwar (1981) ishida teskari isbotlash yukini Konstitutsiyaviy jihatdan maqbul deb topgan, chunki davlat xizmatchilari ommaviy ishonchni olib yurishlari sababli ularga nisbatan qo‘shimcha majburiyatlar qo‘yish asosli hisoblanadi.⁶

Xitoy tajribasi. Xitoy Jinoiy Kodeksining 395-moddasi noqonuniy boylik orttirganlikni bevosita jinoiy javobgarlik sifatida belgilaydi. Agar mansabdor shaxsning mulki yoki xarajatlari uning qonuniy daromadidan sezilarli darajada oshsa, farqni izohlashga qodir bo‘lmaganida u 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum etilishi mumkin. Xitoy tajribasi bu institutning amaliy samaradorligini ko‘rsatadi: 2012-2021-yillarda 4 000 dan ortiq mansabdor shaxs mazkur modda bo‘yicha javobgarlikka tortilgan.⁷

Janubiy Afrika tajribasi. “Tushuntirilmagan boylik to‘g‘risida”gi Qonun (Unexplained Wealth Orders — UWO) 2019-yilda kuchga kirgan bo‘lib, bu qonun bo‘yicha davlat organlari suddan mansabdor shaxsga nisbatan mulkning manbai haqida tushuntirish talab etuvchi buyruq chiqarishni so‘rashi mumkin. Agar shaxs manbani izohlashga qodir bo‘lmasa, mulk musodara qilinadi. Bu mexanizm jinoiy javobgarlik bilan bevosita bog‘liq bo‘lmasa-da, korrupsion aktivlarni qaytarishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.⁸

Buyuk Britaniya tajribasi. 2017-yilda joriy etilgan “Tushuntirilmagan boylik buyruqlari” (Unexplained Wealth Orders) mexanizmi Buyuk Britaniyada korrupsion aktivlarni aniqlashda

⁶ Hindiston Korrupsiyaga qarshi Qonuni (Prevention of Corruption Act), 1988, 13(1)(e)-modda. <https://legislative.gov.in/sites/default/files/A1988-49.pdf>

⁷ Xitoy Xalq Respublikasi Jinoiy Kodeksi, 1997 (2021-yil o‘zgartishlar bilan), 395-modda. National People’s Congress. <http://www.npc.gov.cn/englishnpc/c23934/202206/b3e3d42dc12f46dda47dfac77fca1e98.shtml>

⁸ Janubiy Afrika Respublikasi, Unexplained Wealth Orders Act, 2019. South African Government Gazette. <https://www.gov.za>

yangi davr ochdi. Serious Fraud Office va National Crime Agency bu vositadan foydalanib, yirik moliyaviy jinoyatlarni ochishga muvaffaq bo'lgan (NCA Annual Report, 2022).⁹

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni va Jinoiy Kodeksda noqonuniy boylik orttirganlik alohida tarkib sifatida belgilanmagan. Biroq, bir qator normalar bilvosita ushbu sohaqa tegishlidir: Jinoiy Kodeksning 205-moddasida hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish, 210-modda pora olish jinoyati uchun javobgarlik belgilab qo'yilgan.¹⁰

2023-yilda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi" korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlarini yanada takomillashtirish vazifalarini belgilaydi, biroq noqonuniy boylik orttirganlik uchun alohida javobgarlikni joriy etish masalasi to'liq hal etilmagan.¹¹

O'zbekistonda mulkiy deklaratsiyalar tizimi joriy etilgan bo'lsa-da, deklaratsiya ma'lumotlarining tekshirilishi va noqonuniy boyliklarni aniqlash mexanizmlari hali yetarli darajada shakllanmagan. Moliya vazirligi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi o'rtasidagi ma'lumot almashish mexanizmlari takomillashtirish talab etadi.

Noqonuniy orttirilgan boylik uchun javobgarli masalasi bilan birgalikda uni isbotlash uchun aybsizlik prezumpsiyasi muammosi ham mavjud. Noqonuniy boylik orttirganlik instituti bilan bog'liq asosiy huquqiy muammo teskari isbotlash yuki masalasidir. An'anaviy jinoiy huquqda aybsizlik prezumpsiyasi davlat organini aybni isbotlash majburiyatini zimmasiga yuklatadi. Biroq, noqonuniy boylik orttirganlik holatida isbotlash yuki shaxsning o'ziga o'tkaziladi - u mulkning qonuniy manbai borligini isbotlashi kerak.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 26-moddasi aybsizlik prezumpsiyasini kafolatlaydi. Shu sababli, noqonuniy boylik orttirganlik uchun javobgarlikni joriy etishda ushbu konstitutsiyaviy kafolatga muvofiqlik ta'minlanishi zarur.

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda noqonuniy boylik orttirganlik uchun javobgarlikni joriy etishning quyidagi istiqbollari belgilanishi mumkin:

Birinchi bosqich - huquqiy bazani tayyorlash. Jinoiy Kodeksga noqonuniy boylik orttirganlikni alohida tarkib sifatida kiritish yoki fuqarolik huquqi doirasida "tushuntirilmagan boylik buyruqlari" mexanizmini joriy etish.

Ikkinchi bosqich - institusional tayyorgarlik ya'ni Moliya vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura va soliq organlari o'rtasida samarali ma'lumot almashish tizimini yo'lga qo'yish. Shuningdek, malakali moliyaviy tergovchilar tayyorlash zarur.

Uchinchi bosqich - texnologik infratuzilma. Davlat xizmatchilari mulkiy deklaratsiyalarini avtomatlashtirilgan tahlil qilish tizimini joriy etish, moliyaviy razvedka imkoniyatlarini kengaytirish.

To'rtinchi bosqich - xalqaro hamkorlik. Xorijiy huquq tartibi organlari bilan o'zaro yordam shartnomalarini kengaytirish, chunki korrupsion aktivlar ko'pincha xorijiy davlatlarda joylashtiriladi.

⁹ National Crime Agency (NCA). (2022). Annual Report and Accounts 2021–22. UK Government. <https://www.nationalcrimeagency.gov.uk/publications/annual-reports>

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111453>

¹¹ Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi. <https://lex.uz/docs/-6676585>

Xulosa

Noqonuniy boylik orttirganlik uchun javobgarlikni joriy etish O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligini tubdan oshirish imkoniyatini beradi. Xalqaro tajriba, xususan Hindiston, Xitoy va Janubiy Afrika namunalari, ushbu institutning amaliy samaradorligini ko'rsatadi. Biroq, tatbiq etish jarayonida bir qator muammolarni hal etish zarur. Xususan, aybsizlik prezumpsiyasi kafolatlariga muvofiqlikni ta'minlash, institusional salohiyatni mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

O'zbekiston uchun eng maqbul yondashuv - dastlab fuqarolik-huquqiy musodara mexanizmini joriy etish, keyinroq esa jinoiy javobgarlikni bosqichma-bosqich shakllantirish.

Ushbu tadqiqot natijalarini hisobga olgan holda quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: O'zbekiston Jinoiy Kodeksiga noqonuniy boylik orttirganlikni jinoiy javobgarlik sifatida belgilovchi modda kiritish, "Tushuntirilmagan boylik buyruqlari" mexanizmi fuqarolik huquqi doirasida joriy etish, noqonuniy orttirilgan boylikni aniqlash uchun ushbu sohada tergovchilar malakasini oshirish borasida xalqaro hamkorlik kengaytirish zarur.

Ushbu islohotlar O'zbekistonning UNCAC majburiyatlari doirasida korrupsiyaga qarshi kurashni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi va ijtimoiy adolat tamoyillarini ta'minlashga muhim hissa qo'shadi.

Umuman olganda, noqonuniy boylik orttirganlik uchun jinoiy javobgarlikni joriy etish korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq ushbu institutni tatbiq etish puxta o'ylangan va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Faqat shundagina u huquqiy davlat va adolatli jamiyat barpo etishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Bank. (2021). Combating Corruption. <https://www.worldbank.org/en/topic/governance/brief/anti-corruption>
2. BMT Korrupsiyaga qarshi Konventsiyasi (UNCAC), 2003. United Nations Treaty Series. <https://www.unodc.org/unodc/en/corruption/uncac.html>
3. Perdriel-Vaissiere, M. (2011). The accumulation of unexplained wealth by public officials: Making the offence of illicit enrichment enforceable (U4 Brief No. 2). U4 Anti-Corruption Resource Centre. <https://www.cmi.no/publications/file/4365-the-accumulation-of-unexplained-wealth-by-public.pdf>
4. Boles, J. R. (2014). Criminalizing the Problem of Unexplained Wealth: Illicit Enrichment Offenses and Human Rights Violations. NYU Journal of Legislation and Public Policy, 17, 835–878. <file:///C:/Users/user/Downloads/ssrn-2588488.pdf>
5. Saidova, S. O. (2026). Korrupsiya: noqonuniy boylik orttirish uchun javobgarlikni belgilash masalalari. Ilm-fan xabarnomasi (Science Bulletin), 13(1). <https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/view/27715/30502>
6. Hindiston Korrupsiyaga qarshi Qonuni (Prevention of Corruption Act), 1988, 13(1)(e)-modda. <https://legislative.gov.in/sites/default/files/A1988-49.pdf>
7. Xitoy Xalq Respublikasi Jinoiy Kodeksi, 1997 (2021-yil o'zgartishlar bilan), 395-modda. National People's Congress.

<http://www.npc.gov.cn/englishnpc/c23934/202206/b3e3d42dc12f46dda47dfac77fca1e98.shtml>

8. Janubiy Afrika Respublikasi, Unexplained Wealth Orders Act, 2019. South African Government Gazette. <https://www.gov.za>
9. National Crime Agency (NCA). (2022). Annual Report and Accounts 2021–22. UK Government. <https://www.nationalcrimeagency.gov.uk/publications/annual-reports>
10. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111453>
11. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi. <https://lex.uz/docs/-6676585>